

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH

R.A.Mavlonova,
Nizomiy nomidagi TDPU
professori, p.f.d.

Keyingi o'n yilliklar davomida mamlakatimiz hayotida katta o'zgarishlar ro'y berdi: yangicha ijtimoiy tuzum mustahkamlanib, iqtisodiy munosabatlar tizimi tamomila yangicha asosda qurilmoqda, natijada, yangi kasblar paydo bo'lib, mavjudlariga ham o'zgacha talablar qo'yilmoqda. Ko'plab faoliyat turlarida hech bo'lmaganda bitta chet tilini erkin o'zlashtirish, kompyuter texnikasidan foydalana bilish talab etilmoqda.

Shu sababli o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga yangicha tayyorlash talab etilmoqda. Mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiyalash zarurati ayni shu holatlar bilan belgilanadi.

Hozirda ta'limni modernizatsiyalash davlat ta'lim siyosatining yetakchi g'oyasi va asosiy vazifasi sanaladi.

Ta'limni modernizatsiyalash - ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari va faoliyatining barcha sohalarini milliy ta'limning eng yaxshi an'analarini saqlagan va boyitgan holda bugungi kun talablari darajasiga ko'tarishga qaratilgan kompleks chora tadbirlardir.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiyalash zarurligi haqida ko'p gapirilmokda. Bu jarayonda ayrim muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Birinchi muammo — amaldagi tizimda mavjud ijobiy holatlarni saqlab qolish. Ikkinchisi — avvalgi yillarda jamiyat uchun foydali bo'lgan jihatlar boy berilgan bo'lsa, ularni tiklash. Nihoyat, uchinchi - ta'lim tizimini jamiyat talablari bilan muvofiqlashtirish.

Pedagogika fani va amaliyotida boshlang'ich umumiy ta'limni modernizatsiyalash, ta'lim mazmunini integratsiyalash — kichik yoshdagi o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yagona tamoyillar asosida rivojlantiruvchi muhitni yaratish: universal malaka va qobiliyatlarni kommunikativ, ijtimoiy, axborot, kognitiv va boshqa kompetentsiyalarni shakllantirish bilan bog'liq yechimlari belgilangan. Shu asosda proektsiyalanadigan ta'lim mazmuni kichik yoshdagi o'quvchilarning kompleks ta'lim bilish jarayonini tashkil qilish va uning natijalarini bolaning bazaviy kategoriyalarni turli nuqtai nazardan, turli ta'lim sohalarida o'rganadigan, mazmunni bir tildan boshqasiga tarjima qilish usullarini o'zlashtiradigan yagona, u yaxlit jarayon sifatida aniqlashni ta'minlaydi.

Bu bilish jarayonida bolaning bilish faoliyatida duch keladigan shaxsiy va madaniy mazmunni keltirib chiqaradi, ta'limni mintaqalashtirishni ta'minlaydi.

Ta'limni mintaqalashtirish deganda, tadqiqotchilar bola hayotini ta'minlovchi muhitni, uning hayotiy faoliyatda real umuminsoniy va mahalliy qadriyatlarga aloqador bo'lgan mazmunni o'z ichiga olgan konteksti sifatida qaraydilar.

Shaxsning yaxlit rivojlanish sharti sifatida maktabgacha va boshlang'ich ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash lozim. Yaxlit rivojlanish, dunyoni uyg'unlikda idrok etishsiz, o'rganishning uyg'un shakli bo'lishi mumkin emas.

Boshlang'ich ta'lim tizimini modernizatsiyalashda integratsiya masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limning barcha bo'g'inlarida tobora faol ko'llanayotgan pedagogik integratsiyaning turli yo'nalish, tur va shakllari o'quvchilar, jumladan, kichik yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy kuch, qobiliyatlarini ochish uchun maqbul sharoit yaratib, ta'lim tizimiga yangicha gumanistik yo'nalganlik baxsh etadi. Pedagogik integratsiya o'zining texnologik infrastrukturasi, o'z «tayanch» ta'lim texnologiyalariga ega.

O'qituvchi, eng avvalo, o'z sinfidagi o'quvchining tayyorgarlik darajasini tahlil qiladi, uning psixologik xususiyatlari va bilishga bo'lgan qiziqishlarini baholaydi. Ularning o'quv faoliyatida murakkabliklar integratsiyalash metodini qo'llash sabablardan biri bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda o'quvchilarning ma'lum o'quv fanini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi boshqa: bir fanga oid bilim va malakalarning mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Masalan, matnni tez va savodli ko'chirib yozish ko'p jihatdan ravon va to'g'ri o'qish malakasiga bog'liq. Ammo xatto muhim sheriklik aniq ko'zga tashlanmasa ham, o'qituvchi o'z fanining mazmun-mohiyatini qat'iy baholab, «izolyatsiyalangan» ajratilgan o'qitish yetarli emasligi, xatto zararli ekanini anglab yetishi lozim.

Dunyoning yagona ekani, unda son-sanoqsiz aloqadorliklar mavjudligini, biror bir muhim masalani ko'plab boshqalariga daxlsiz ko'rib chiqish mumkin emasligini tobora aniq, idrok etib boryapmiz. Bunday hollarda qiyoslash, taqqoslash talab etiladi. Bu ham integratsiya uchun bir asos.

Biroq o'qituvchilar o'z fanlarini o'qitishda ta'limning istiqboldagi maqsadlarini yaqinlashtiradigan o'zaro hamkorlik maydonini aniqlay olishi integratsiyaning yanada chuqur asosi sanaladi. G'oyani amalga oshirish, maqsadga erishish uchun ta'limning tegishli texnologiyasini ishlab chiqish, ko'p hollarda munozaraga sabab bo'layotgan integratsiyalangan dars davomida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etish masalasini hisobga olish talab etiladi.

Eng avvalo, integratsiyalangan kursga kiritilgan aynan bir masalani hal qilish asosida bilishga qiziqish va umum o'quv ko'nikma va malakalarini ishlab chiqish

jarayonini intensivlash masalasi dolzarblik kasb etadi.

Darsni o'qituvchilar birga yoki alohida olib borishi mumkin, Biroq natija ularning birgalikdagi sa'y-harakatlari hisobiga erishiladi. Oddiy bir misol: ko'plab o'qituvchilar bolalarga vazifalarni daftarda rasmiylashtirishga oid turlicha talablar qo'yadi, natijada kichkintoylar ancha vaqtgacha tegishli tartibning «o'rtamiyona» variantni topolmay qiynaladi.

Integratsiyalangan kurs doirasida esa o'qituvchilar nimani muhim, nimani asosiy bo'lmagan deb hisoblashni avvaldan kelishib olishi, o'quvchilarni o'z ishlarini ratsional rasmiylashtirishga, og'zaki javoolarini to'g'ri tuzishga o'rgatishi; ularga o'z-o'zini nazorat va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini singdirishi mumkin. O'qituvchilarning bu kabi hamkorligiga asoslangan darslarni ham, garchi ularda o'rganiladigan material sira kesishmasa-da, integratsiyalangan darslar sirasiga kiritiladi.

Mazkur muammo boshlang'ich maktabda o'ziga xos murakkabliklarga ega. Ayni paytda uni hal qilishni yengillashtiradigan omillar ham mavjud. Bir tomondan, boshlang'ich maktabda o'quv fanlari soni ko'p emas. Boshqa tomondan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari integratsiyalangan darslarga o'tishi oson, zero deyarli barcha o'quv fanini ularning o'zi olib boradi.

Integratsiyalangan dars o'qituvchidan qo'shimcha tayyorgarlik, ko'proq eruditsiya, yuksak professionalizmni talab qiladi. Bunday darsni ishlab chiqar ekan o'qituvchi quyidagilarni hisobga olishi kerak:

1. Darsning maqsadi (mavzuni o'zlashtirish muddatlarini qisqartirish, o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni bartaraf qilish, ustivorliklarni qayta taqsimlash va sh.k.).

2. Ob'ekt, ya'ni axborot manbalarini tanlash, ularning dars maqsadlariga mos kelishi.

3. Tizim hosil qiluvchi omilni aniqlash, ya'ni turli predmetli axborotni birlashtirish uchun asos topish (g'oya, hodisa, tushuncha yoki predmet).

4. Kursning yangi strukturasini yaratish, ya'ni bilimlarning funktsional vazifasini o'zgartirish.

5. Mazmun ustida ishlash eski shakllarni buzib, tizimning alohida elementlari o'rtasida yangi aloqalarni o'rnatish.

O'qituvchi kichik yoshdagi o'quvchilarga bilim berishda tobora samarador natijalarga erishish uchun qachon va qaysi o'quv fanlarini integratsiyalash mumkinligini aniq bilishi muhim.

Integratsiyalangan darsning asosiy xususiyati uning qaysidir asosiy sanalgan bitta o'quv fani asosida ko'rinishidadir. Bu integratsiyalaydigan o'quv fanlari o'rganilayotgan predmet mohiyatini, uning aloqalarini chuqurroq tushunish va

olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'limda integratsiyalangan kurslar emas, balki integratsiyalangan darslar norma sanaladi.

Integratsiya faoliyat tizimi va bolalar o'zlashtirgan bilimlarni shunchaki bir o'quv fanidan boshqasiga ko'chirish emas. Bu kabi jarayonni pedagogika va metodikada an'anaviy tarzda fan ichi va fanlararo aloqadorlikdan foydalanish deb yuritiladi, bu ham kelgusida, ta'limning yuqoriroq bo'g'inida amalga oshiriladigan integratsiyaning tendentsiyalari, omillaridan sanaladi.

Boshlang'ich ta'lim tizimini modernizatsiyalashda axborot texnologiyalari yutuqlarini keng joriy etish ham muhim omil sanaladi, Bunda ta'limning sifati ortadi.

Axborot texnologiyalari yutuqlari ayni paytda o'quvchilarni zamonaviy madaniyatta oshno etish vositasi bo'lib xizmat qiladi, axborotlashgan jamiyat sharoitida bu alohida dolzarblik kasb etadi.

Ta'lim, jumladan, boshlang'ich ta'lim, ijtimoiy muhitning uzviy bir qismi sanaladi, shu bois uni axborotlashtirish yo'llari va bosqichlari umuman jamiyatni axborotlashtirishning umumiy qoidalari bilan mos keladi.

Ta'lim maqsadlariga, jumladan, ilmiy bilish metodini o'zlashtirish, o'quv jarayonini tashkil qilishga texnologik yondashuv asosidagina erishish mumkin. Zamonaviy o'quv jarayoni texnologiyasi o'quv jarayoni qonuniyatlarini ifoda etadigan nazariy qoidalar mahsuli bo'lishi lozim.

Ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishda, avvalo, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik-pedagogik, fiziologik va yoshga oid hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olish tamoyiliga amal qilish lozim.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarini yaratish moda ketidan quvish emas, balki davr talabi ekanini yodda tutish lozim.

Ma'lumki, modernizatsiyalash amaldagi ta'lim tizimini yangilash va takomillashtirishni anglatadi. Bu jarayon amalda respublikamizda istiqomat qiladigan har bitta oilaga dahldor. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ularning maqsad va yo'nalishlari, metodlari aholiga tushtuntirib borilishi, jamoatchilik fikri esa ta'lim sohasi va muassasalari rahbariyati tomonidan e'tiborga olinishi kerak.

Hozirda O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich va o'rta ta'lim sifatini baholashning kompleks tizimi ishlab chiqilgan, u o'quv-tarbiya jarayonining holati va natijaliligi haqida ob'ektiv ma'lumot olish, umumlashtirish, tizimlashtirish; rivojlanishni bashoratlash, shuningdek, baholash, nazorat va o'z-o'zini nazorat turlarini hamda ta'lim muassasalarini tekshirish, inspektsiyalash va

attestatsiyalashni muvofiqlashtirishga yo' naltirilgan.